

MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNI MEHNAT TARBIYASI

Mirbabayeva Nodiraxon Soliyevna

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7757333>

Annotatsiya: Mazkur maqolada aqli zaif maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishidagi kamchiliklarni mehnat tarbiyasi jarayonida korrektsiyalash eng muhim vazifa ekanligi, mehnat tarbiyasi ta'lim muammolarini hal qilishga yordam berishi va bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning samarali vositalaridan biri ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat tarbiyasi, aqli zaiflik, maktabgacha tarbiya, maxsus maktab, defektolog, oligofrenopedagog, mehnat faoliyati, ko'rgazma, qo'l mehnati, jamoa

Maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasi turli faoliyatlarda: o'quv, maishiy va ijtimoiy mehnatda amalga oshirib boriladi. Bu mehnat turlarining barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quv mehnatida bolalar mehnatda kerak bo'ladigan bilimlarni egallasalar, maishiy mehnatda esa oddiy, sodda, tushunarli mehnat turlari bilan tanishadilar. Nuqsonli bolalarni tarbiyalashda ijtimoiy foydali mehnat katta ahamiyatga ega. Bularga o'z-o'ziga xizmat qilish, turli kechalar tashkil etish va o'tkazish, ko'rgazmalar, konkurslar, muassasani obodonlashtirish ishlari, hosilni yig'ishtirib olish, to'garak ishlari va boshqa qator mehnat turlari kiradi.

Bu mehnat turlari mazmunining turli-tumanligi nuqsonli bolalarning keng hajmda bilimlar egallashlariga imkoniyat yaratadi. Maxsus muassasalardagi mehnat tarbiyasi, ishlab chiqarish mehnatlarida samarali natijalar beradi. Mehnatning qimmatligi shundaki, mehnat orqali bolalar turli fanlarga oid nazariy bilimlar olish bilan birga, ularda shaxsiy sifatlar shakllanib borishi asosida, mehnat davolash vazifalarini ham o'taydi.

Barcha mehnat jarayonlaridagi xatti-harakatlar oqibatida fiziologik jarayonlar yaxshilanib boradi. Ruhiyatga ijobiy ta'sir etadi. Ularning irodaviy sifatlarini shakllantiradi. Ular faoliyatiga tashkiliy ma'no beradi, asosiy, mehnat tufayli aqli zaif bolalar o'z kasalliklariga oid fikrlardan chalg'iydilar. Lekin bunda mehnat topshiriqlari bolalar kasalligi darajasiga, xususiyatlariga qarab berilishi kerak, shundagina u samarali natijalarga olib keladi. Tajribalar hamda ilmiy izlanishlarning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar mehnat faoliyatining turli jabhalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlari mumkin. Jamoa bo'lib mehnat qilish asosida bolalar aqliy, estetik, jismoniy rivojlanib, ularning dunyoqarashlari, axloqiy sifatleri, xarakteri shakllanib boradi.

Aqli zaif bolalarni mehnat ta'limisiz, tarbiyasisiz rivojlantirishni tasavvur etish mumkin emas. Maxsus muassasalarda mehnat tarbiyasini amalga oshirishda mehnat haqida suhbatlar, ayrim mehnat jamoalari haqida hikoya qilib berish, mashhur, ilg'or kishilar to'g'risida ma'lumot berish, qishloq mehnatkashlari haqida savol-javoblar tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Turli mavzularda qizqarli suhbatlar o'tkazish, aqli zaif bolalardagi qator salbiy sifatlarining to'g'rilanishiga olib keladi. «Barcha kasblar kerak», «Bizning rejalarimiz — bizning ishimiz», «Bizlar uchun kim, qaerda ishlaydi», «Barcha mehnat faxrlidir», «O'simliklarni asrang», «Nonni tayyorlash jarayoni» va boshqa mavzular bolalar tomonidan sevib o'rganiladi.

Ishlab chiqarish korxonalariga sayohat uyushtirish orqasidan maktab mehnat ustaxonalaridagi mehnatga boshqacha munosabatda bo'ladilar. Demak, sayohat faqat tomosha uchun o'tkazilmaydi, balki bolalarda ijtimoiy ongini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Buning uchun maxsus tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Turli korxonalarga, kolxoz va sovxozlarga

ekskursiyalar uyushtirish orqasidan bolalarda o'ziga xos ishonch hosil qiladi. hayotda asosiy narsa — vijdonan mehnat qilish kerak degan fikr paydo bo'ladi. Mehnatdagi yutuqlar uchun berilgan turli mukofotlar, tanqidiy fikrlash asosida bolalar qanday yashash, ishlash, kerakligi haqida o'ylay boshlaydilar. Har bir sayohat oxirida yakuniy suhbat o'tkaziladi.

Maxsus maktablardagi mehnat tarbiyasini amalga oshirishda qo'l mehnati natijalarini namoyish etuvchi to'garak ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu to'garaklarda qatnashish orqali aqli zaif bolalarni tarbiyalash, hayotga tayyorlash yaxshi natijalar beradi. Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning manbai, inson hayotiy faoliyatining asosiy shaklidir. Kishi hayotining mazmuni va har bir jamiyat a'zosining vazifasi, shaxs taraqqiyotining asosidir.

Mehnat tarbiyasi nuqsonli bolalarni mehnat faoliyatida tarbiyalash majmuasidir, deb ta'kidlanadi defektologik lug'atda. Hozirgi davrda mehnat tarbiyasi boshqa tarbiya turlaridan har taraflama ustunligi bilan ajralib turadi.

Maxsus bog'chalardagi mehnat esa alohida tashkil etilishi lozim. Chunki mehnat faoliyatida nuqsonli bolalardagi psixofizik yetishmovchiliklar ko'proq korreksiyalanadi va bartaraf etiladi. Mehnat jarayonlari maxsus muassasa bolalarini atroficha rivojlantirish va hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir. Bu muassasalardagi mehnat tarbiyasining vazifalari bolalarni mehnat malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda jamoa hislarini tarkib toptirish va xulq me'yorlarini shakllantirishdan iboratdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalarning mehnat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat: aqli zaif bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish, mehnatni qadrlash, mehnat kishilarini hurmatlash, qadrlash, mehnatga qiziqishni tarbiyalash, dastlabki mehnat malakasi va ko'nikmalarini shakllantirish, mehnatga havas uyg'otish, mehnatsevarlik, birovni mehnatini hurmat qilish, saranjom-sarishtalik, tejamkorlikni tarbiyalashdir. Jamoali mehnatda do'stona o'zaro munosabatni, jamoada ishlay bilish, o'zaro yordamlashishni tarbiyalash lozim.

Maxsus maktabgacha tarbiya muassasalarida mehnat tarbiyasi ikki yo'nalishda olib boriladi. Bir tomondan, bolalarni kattalarning mehnati bilan, mehnatning jamiyatdagi roli bilan tanishtiriladi, kattalarning mehnatiga hurmat hislari tarbiyalanadi. Boshqa tomondan, mehnat tarbiyasi bolalarning amaliy faoliyatini tashkil etishda o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini shakllantirish qo'l mehnati mashg'ulotlarida, maishiy xizmat va tabiatda mehnat qilishda olib boriladi. Bolalar bog'chasi dasturida bu umumiy masalalar yosh gruppalari bo'yicha belgilab olinadi. Maxsus bolalar bog'chalarida mehnat tarbiyasiga quyidagilar kiradi:

1. Qo'l mehnati mashg'ulotlari.
2. O'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini tarbiyalash.

Qo'l mehnati mashg'ulotlari maxsus bolalar bog'chasida aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berishning eng muhim bo'limi hisoblanadi. Qo'l mehnati bilan ishlashga: applikatsiya, qurish-yasash, tabiat materiallari bilan mashq qilishlar kiradi. Kichik yoshdagi aqli zaif bolalar uchun yengil qo'l mehnati bu-applikatsiya yopishtirishdir. Shuning uchun ko'rsatilgan faoliyat turlari maxsus bog'chalarda kichik gruppalarning birinchi yilida qo'llaniladi. Keyinchalik katta gruppalarda tabiat materiallari, daraxt, fabrikantlar bilan ishlash va konstruktorlik mashg'ulotlari bilan tugatiladi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlarida aqli zaif bolalar vazifalarini oldin namuna bo'yicha so'ng mustaqil bajaradilar. Mashg'ulot davomida aqli zaif bolalar qurilish materiallari: qum, tuproq, qor, plastilin, qog'oz, daraxt bilan tanishadilar. Ularning xususiyatlarini o'rganadilar. Oddiy

mehnat qurollari bilan yengil mashqlarni qilishni o'rganadilar. Qo'l mehnati mashg'ulotlari bolalar motorikasini shakllantiradi va mayda qo'l muskullarini rivojlantiradi. Qo'l mehnati mashg'ulotlari aqli zaif bolalarning aqliy taraqqiyot va shaxs xususiyatlari rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlar aqli zaif bolalarda o'z mehnatini sevish, tashkiliy mehnatini o'zlashtirishni shakllantiradi.

O'z – o'ziga xizmat qilish malakasini tarbiyalaydi. O'z-o'ziga xizmat etish bolalar mehnatini tashkil etish shakli sifatida barcha gruppalarda qo'llaniladi. U kun tartibidagi jarayonlarda: ovqatlanish, uyqu oldidan sayrga chiqish va undan qaytgach kiyinib-yechinish, yuvinish, uyquga tayyorlanish, o'zini va kiyim-kechakni ozoda tutish ishlarini bajarish bilan chambarchas bog'liqdir. O'z-o'ziga xizmat etish jarayonida bolalarda mustaqillik, mehnat qilishga urinish odati, ozodalik, saranjom-sarishtalilik, buyumlarga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish, asrab-avaylash xususiyatlari tarbiyalanadi.

Mehnat faoliyatini tashkil qilish bilan birga aqli zaif bolalarda, pedagog kattalar mehnatiga hurmat uyg'otish va mehnatsevarlikni tarbiyalab borish lozim. Kichik guruhlardagi aqli zaif bolalarga, ular tushunishiga oson bo'lgan enaga, oshpaz, shofyor, qorovul va bolani o'rab turuvchi kishilar mehnati haqida gapirib beradi. Tarbiyachi konkret, bolalarga tushunarli misollarda kattalar mehnatining ahamiyatini tushuntiradi va bolalarda ular mehnatiga nisbatan minnatdorchilik hissini uyg'otadi.

Tarbiyachi bolalarga mazali ovqatni oshpaz pishirganini tushuntiradi va hamma bolalar tarbiyachi bilan birga oshxonaga boradi, oshpaz ishini kuzatadilar, mazali taom uchun oshpazga minnatdorchilik bildiradilar. Keyinchalik bolalarga faqatgina bog'chada ishlaydiganlar bilan emas, balki boshqa kishilar, ota-onalar mehnati bilan tanishtiriladi.

Bolalar hikoyalar va o'yinlardan kishilar haqida (stol, stul, krovat, kiyim-kechak ishlab chiqqan kishilar), keyinroq esa hamma narsalar ishchilar tomonidan, meva, sabzavotlar kolxozchilar tomonidan yetishtirilishini bilib oladilar. Tayyorlov guruhida bolalar turli kasbdagi kishilar mehnati (ishchi, kolxozchi, quruvchi, shofyorlar, o'qituvchi, kutubxonachi) haqida bilib oladilar. Kattalar mehnati bilan tanishtirish ekskursiyalar orqali amalga oshiriladi. Kattalar mehnatiga hurmat uyg'otish hissini mustahkamlash uchun suhbat o'tkaziladi. Mehnat faoliyati jarayonida bolalar o'zlariga topshirilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'z ishlarini mustaqil tashkil etishni ham o'rganishlari zarur.

References:

1. Катаева А.А., Стребелева Е.А. Дошкольная олигофренопедагогика.
2. Soliyevna, Mirboboyeva Nodiraxon. «OLIGOFRENOPEDAGOGIYA VA AQLIQ KELOQLIKNI RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAQIDA FIKRLAR». *Konferentsiya 7.7* (2022): 102-105.
3. Soliyevna, Mirbabayeva Nodiraxon. "Family and school cooperation in raising children with Down syndrome." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 236-242.
4. Soliyevna, Mirboboyeva Nodiraxon. "DUDUQLANISH NUTQ NUQSONINING ILMIY ASOSLARI." *Conference Zone*. 2022.
5. Nadirakhan, Mirbabaeva. "Children with delayed mental development." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.11 (2022): 15-19.

6. Rustamjon o'g'li, Xayitov Lazizbek, and Xovodillayev Murodjon. "TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN 9-13 YEARS OLD." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 841-844.
7. Rustamjon o'g'li, Xayitov Lazizbek. "THE SYSTEM OF FORMATION OF LEXICAL AND GRAMMATICAL STRUCTURES IN CHILDREN WITH SPEECH IMPAIRMENTS." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 877-880.